



## G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARIDAGI TARIXIY VA ARXAIK SO'ZLAR

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li

*TerDPI o'qituvchisi*

Ro'ziyeva Umida Azamat qizi

*TerDPI talabasi*

**Anotatsiya.** Ushbu maqola G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida uchraydigan eskirgan, tarixiy va arxaik so'zlar tahlili va eskirgan, tarixiy arxaik so'zlar o'zi nima degan savolga javob beradi.

**Kalit so'zlar:** *Shum bola, arxaik so'zlar, tarixiy so'zlar, eskirgan so'zlar, istorizmlar, qalandar, qalandarbachcha, jazava, dondon sopli pichoq, leksik lug'at, qo'ndog, yaktak, lipa, guppi, kuchala, irvit.*

Barcha xalqlarda o'z anana va qadriyatlarini, tarixini, ijtimoiy-siyosiy hayotini, qayg'uli va quvonchli kunlarini aks ettiruvchi asarlar mavjud. O'zbek xalqining mana shunday asarlaridan biri bu G'afur G'ulom qalamiga mansub "Shum bola" qissasidir. Bu asar o'zbek xalqining XX asr boshidagi hayoti tasvirlangan. Ushbu asarda o'sha davrga xos so'zlar va iboralar ishlatilgan quyida ularning tahlilini o'rganamiz. G'afur G'ulomning antroponimlardan badiiy va uslubiy maqsadlarda foydalanish mahoratini ochish, uning asarlarida qo'llangan kishi nomlari, laqablarining etimologik va ma'noviy xususiyatlarini tavsiflash, laqablarning nominativlik va ekspressivlik xususiyati kabi masalalar ana shunday vazifalar sirasidan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" nasriy asarida hamda pyesa, hikoya va feletonlaridagi obrazlilik, real tasvirlar xalqning jonli so'zlashuv tili asosida badiiy ifodalangan. Shuningdek, voqea-hodisalarning haqqoniy manzarasini chizishda qadimgi turkiy, arabiy, forsiy tillardagi lug'aviy birliklarni aslidagidek qo'llagan. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida kam uchraydigan ko'tarmachi, paxtafurush, gaz (uzunlik o'lchovi), xo'qa (yog' idish), qo'ndog, yaktak, lipa, guppi, mursak,



savag'ich, chirmandachi, kuchala, irvit kabi leksemalar o'z ma'nosida joy-joyida ishlatilgan.

So'z bu millat yuzidir. Zamon o'zgarishi, millatlar almashinuvi, turli texnologik va boshqa mahsulotlarning kirib kelishi bilan birgalikda o'sha davlatning lug'ati ham o'zgarib, ortib va ayrim so'zlar eskirishiga ham olib keladi.

Eskirgan so'z – ma'lum bir davrda keng foydalanilgan ayni paytda faol muloqotda emas ammo til lug'atida saqlanib qolgan so'zlar.

Eskirgan so'zlar eskirish darajasiga va foydalanish xususiyatiga qarab o'z leksik sistemasini tashkil qiladi va ularni *tarixiy va arxaik* so'zlarga bo'lib o'rganiladi.

**Tarixiy so'zlar.** Bunda so'z o'zi ifodalagan so'z bilan birga eskiradi. Ya'ni ma'lum bir predmet, rasmiy unvonlarning yo'qolishi, ijtimoiy hodisalar va harbiy qurol asboblarning foydalanishdan chiqib ketishi, eskirishi bilan birga unlarni ifodalovchi so'z ham birga eskirib tarixiy so'zga aylanadi. Tarixiy so'zlar o'zi atagan narsa yoki tushuncha iste'moldan chiqib ketganligi bois qo'llanmayotgan leksik qatlamdir. Bu qatlam har bir davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi, kamayib boradi. Istorizmlar leksik, semantik, frazeologik xarakterga ega bo'ladi. Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z sinonimiga ega bo'lmagan so'zlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoch, cho'ri, yuzboshi kabi.

Istorizmlar tilning leksik tarkibidan tamoman chiqib ketmaydi, zarur payt-da nutqda qo'llanib turadi, lekin eskirganligi, unutilganligi sababli ma'nosi ko'pincha izoh talab qiladi. Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarkibidagi batrak, amin, vasiqa, vaqarnoma, mudarris, charx, kansava, tanob, choriq, quloq kabi so'zlar tarixiy so'zlar – leksik istorizmlardir

“Qalandarboshi meni ta'rif-tavsiflab ketdi. Jazavalarimning zo'rligidan gapirdi. Bir choynak choy ichguncha olami fanodan olami baqoga o'tib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan to'la qalandarbachcha, o'rta qo'ldak ekanligimni tushuntirdi”. Shum bola asarida Shum bola tilidan olingan



ushbu parchada *qalandarboshi* va *qalandarbachcha* soʻzlarini tahlil qiladigan boʻlsak, qalandar bu islomiy sheʼrlar, gʻazallar aytib dinni targʻib qiluvchi, tarkidunyo qilib darbadar kezuvchi insonlarga nisbatan qoʻllanilgan soʻz.

Qalandarboshi barcha qalandarlarga yetakchilik qiluvchi ularga yoʻlboshchilik vazifasini oʻtagan inson.

Qalandarbachcha deb qalandarlarning farzandlari yoki endi qalandarlik yoʻlini tanlagan yosh qalandarlar nazarda tutiladi. Hozirgi kunda bu ikki soʻz ham eskirgan hisoblanim soʻzlashuvda deyarli qoʻllanilmaydi. Sheʼr va gʻazal yoki tarixiy asarlarda uchrashi mumkin bu soʻzlar.

*Jazava* - kuchli asab qoʻzgʻalishi, oʻz xatti-harakatlarini nazorat qilolmay qolish, xayolot va voqelik oʻrtasidagi muvozanatning yoʻqolishi natijasida yuzaga keladigan holat. Bu oʻrinda jazava tasavvuf istilohida tariqat axlining ilohiy ishq taʼsirida shavqu zavqqa toʻlishi, zikr va samo asnosida oʻzidan ketish holatlari sifatida qoʻllanilgan. Bu soʻz ushbu maʼnoda hozirda juda kam qoʻllaniladi.

*Fano* soʻzi arab tilidan olingan boʻlib oʻlmoq, vafot etmoq, yoʻq boʻlmoq kabi maʼnolarni anglatadi, baqosoʻzi ham arabcha boʻlib “abadiy”, “oʻlmas”, “oʻchmas”, “mangu” degan maʼnoni anglatadi. Gʻ.Gʻulom “Shum bola” qissasida fano va baqo soʻzlarini uygʻunlashtirgan holda iboraning hajmini kengaytirgan. Yaʼni “fano olamidan baqo olamiga ketmoq” “yoʻqlik olamidan mavjudlik, mangulik olamiga ketish” maʼnosida kelmoqda. Mazkur gapda tinib tinchimas Qoravoyning taʼrifi Qalandorboshi tomonidan toʻrt sifatdoshli birikma bilan asoslanib berilmoqda: olami fanodan olami baqoga oʻtib ketgan, behud Mashrabi devona, dili jazavai ilohi bilan toʻla qalandarbachcha, oʻrta qoʻldek.

**Arxaik soʻzlar.** Bunda soʻz eskiradi ammo soʻz ifodalangan tushuncha boshqa yangi bir soʻz bilan saqlanib qoladi. Eskirgan soʻzlar tarixan oʻzgaruvchan leksik-senmantik hodisa hisoblanadi

Eskirish drajasi boʻyicha 2 guruhga ajratish mumkin

1. Maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlar.



2. Ma'nosi aniq lekin kam qo'llaniladigan so'zlarga bo'linadi.

Eskirib iste'moldan chiqqan, o'z ekvivalentiga ega bo'lmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi. Masalan, madrasa tuprog'ini yalamoq, tarki dunyo qilmoq holatlari hayotda mavjud bo'lmasa ham, ularning ifodasi tarixiylik sifatida saqlanib qolgan.

G'afur G'ulomning "Shum bola" asarida Shum bolaning Sriboyni yig'latgan ayanchli hikoyasining dastalbki yolg'oni "dondon sopli pichoq" bilan boshlanadi bu ham ayni eskirgan so'z hisoblanadi.

Dondon so'zi asli forschadan olingan bo'lib tish degan ma'noni anglatadi. Bu o'rinda fil suyagidan yasalgan pichoq ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi kunda bu so'z ham juda kam deyarli qo'llanilamaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mardiyeva M.Sh. FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI(G'AFUR G'ULOM. Educational research in universal sciences.
2. Karimov N. G'afur G'ulom. –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi, 2003.
3. Najibullo Sayfullayev. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 168–170.
4. Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li, & Jo'rayeva Marjona Baxtiyor qizi. (2024). O'ZBEK TILINING JAMIYAT TARIXI BILAN BOG'LIQLIGI. *TADQIQOTLAR.UZ*, 39(8), 155–157.
5. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. –T: Fan va texnologiya, 2006. O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. –Andijon, 2003